



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 4

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2026

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№4 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-4>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Fayziev Shoxrud Farmonovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

**Boboyev Halimboy Boboyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Sattorov Abdug'afvor**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yosuke Shamoto**  
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

**Umarxonova Dildora Sharipxonovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Nematov Jo'rabek Nematilloevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

**Malikova Gulchexra**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Xusanov Ozod Tillabayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Selimanova Svetlana Mixaylovna**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

**Xvan Leonid Borisovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Peshkova Xristina Vyacheslavovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

**Sung Un Lee**  
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

**Oqyulov Omonboy**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ruziyev Rustam Jabborovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Borotov Mirodiljon Xomudjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Toshev Boboqul Norqobilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Shomuxamedova Zamira Shoislamovna**  
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

**Ahmad Issa Altweissi**  
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

**Mexmonov Kambariddin Miradxamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

**Esanova Zamira Normurodovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jason A.**  
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

**Borut Strazisar**  
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

**Usmanova Muborak Akmalxonovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Gasanov Mixail Yuriyevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Sattorova Gulnoza Djurakulovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Murodova Gulnora**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Denisov Gleb**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Fayziyev Shuxrat Xasanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Usmonov Muhammadi Bahridinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xolmuminov Juma**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jo'rayev Yuldash Achilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Po'latov Baxtiyor Xalilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salomov Baxrom Salomovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Osmonaliyev Qayrat**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzayev Aziz**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Aleksey Kibalnik**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Kudryavtsev Vladislav Leonidovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Sergey Shoshin**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**James B.**  
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

**Rustambayev Mirzayusup Hakimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Zufarov Rustam Axmedovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Rajabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ismailov Isomiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)  
**Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Djansarayeva Rima Ernatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Yelena Antonyan Aleksandrovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Matthew Light**  
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)  
**Qo'shayev Nurali Mahmudovich**  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

**Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Pulatov Yuriy Safiyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**To'laganova Gulchehra Zaxitovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzov Davron Miragzamovich**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)  
**Rijakov Aleksandr Petrovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Stoyko Nikolay Genadyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Iskandarov Zayniddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Sergey Pen**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Aleksey Purs**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)  
**Jurgen Maurer**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)  
**Kevin Curtin**  
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

**Ismoilov Bahodir Islamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yuldasheva Govxerjan**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Alexander Trunk**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

**1. Abdullayev Jamshid Djamilovich**

HAQ EVAZIGA XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMALARI TIZIMIDA TIBBIY XIZMAT DIAGNOSTIKA – TASHXIS QO'YISH BILAN BOG'LIQ SHARTNOMALARNING TUTGAN O'RNI.....5

**2. Баходирова Нилуфар Зафар кизи**

ФЕНОМЕН DATA-DRIVEN ЭКОНОМИКИ И ТРАНСФОРМАЦИЯ АНТИМОНОПОЛЬНОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....12

**3. Ibragimova Rayxon Shodmon qizi**

FUQAROLIK PROTSESSIDA GUVONNING HUQUQIY MAQOMI VA O'RNI.....19

**4. Курбанова Лолита Алишеровна**

ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРИКОМАНДИРОВАНИЯ РАБОТНИКОВ В ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ.....25

**5. Po'latov Mirzohid Qo'zimurodovich**

OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGLAR XODIMLARNI MAJBURIY TIBBIY KO'RIKDAN O'TKAZISHNING HUQUQIY MUAMMOLARI.....35

**6. Abdulxoshimov Shoxruxbek Shuxratjon o'g'li**

XODIMNI ISHDAN CHETLASHTIRISHDA HUQUQIY KAFOLATLAR VA PROTSESSUAL NIHOYA VOSITALARI.....44

**7. Насритдинова Наргиза Шокиржоновна**

АЙРИМ ҲОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРДА НОМУСТА ТЕГИШ УЧУН ЖИНОЙИ ЖАВОБГАРЛИК ВА УНИНГ ЖИНСИЙ ЭРКИНЛИККА ҚАРШИ ЖИНОЯТЛАР ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ.....51

**8. Рапиқов Хурсанали Юлдошбоевич**

ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИДА ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР БЕЗОРИЛИГИ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАСИ.....58

**9. Sadullayev Jahongir Jamshedovich**

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA HUIJATLARNI SOXTALASHTIRISH: JINOYAT-HUQUQIY TAVSIF VA JAVOBGARLIK MASALALARI.....67

**10. Musurmanov Bekzod Raximovich**


TERGOV JARAYONIDA RAQAMLI (ELEKTRON) DALILLARNING NAZARIY TUSHUNCHALARI VA YURIDIK TABIATI.....75

**11. Yusuvvalieva Rakhima Yusupovna, Amirkulova Parinamoi Behbud**

LEGAL BASIS FOR THE PROTECTION OF MIGRANTS' RIGHTS IN THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....82

**12. Бабаджанов Бахтиёр Бекович**

ЖИНОЯТЧИЛИККА ҚАРШИ КУРАШИШ ЖАМИЯТДА ИЖТИМОЙ БАРҚАРОРЛИК, ТИНЧЛИК ВА ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШИ.....89




**12.00.04-ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ТРЕТЕЙСКИЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ**

**Ibragimova Rayxon Shodmon qizi,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti  
E-mail: rayxonibragimova135@gmail.com

**FUQAROLIK PROTSESSIDA GUVOHNING HUQUQIY MAQOMI VA O'RNI**

**For citation:** Ibragimova Raykhon Shodmonovna. LEGAL STATUS AND ROLE OF THE WITNESS IN CIVIL PROCEEDINGS. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 4.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20082279>

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola fuqarolik protsessida guvohning huquqiy maqomi, uning sud jarayonidagi roli va ishning haqiqiy holatini aniqlashdagi ahamiyatini ilmiy va amaliy jihatdan o'rganishga bag'ishlangan. Mazkur maqolada guvohning protsessual jarayonda ishtirok etuvchi subyekt sifatida vazifalari, uning huquq va majburiyatlari, shu bilan birga yolg'on ko'rsatma berish yoki protsessual qoidalarga rioya qilmaslik holatlarida javobgarlik masalalari tahlil qilinadi. Guvoh ko'rsatmalarining ishonchliligi va ularning boshqa dalillar bilan uyg'unligi sudning qaror qabul qilishiga bevosita ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, guvohning sud jarayonida ishtiroki orqali taraflar tengligi, ishning oshkoraligi va adolatli hal qilinishi ta'minlanishining muhim jihatlari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** guvoh, fuqarolik protsessi, protsessual huquq va majburiyatlar, sud dalillari, ishning haqiqiy holatlarini aniqlash, taraflar tengligi, oshkoralik, adolat, protsessual ishtirok.

**Ибрагимова Райхон Шодмоновна,**  
Докторант Ташкентского государственного юридического университета.  
E-mail: rayxonibragimova135@gmail.com

**ПРАВОВОЙ СТАТУС И РОЛЬ СВИДЕТЕЛЯ В ГРАЖДАНСКОМ ПРОЦЕССЕ**

**АННОТАЦИЯ**

Данная статья посвящена изучению правового статуса свидетеля в гражданском процессе, его роли в судебном разбирательстве и значению показаний для установления фактических обстоятельств дела как с научной, так и с практической точки зрения. В статье анализируются функции свидетеля как участника процессуального производства, его права и обязанности, а также вопросы ответственности в случае дачи ложных показаний или несоблюдения процессуальных правил. Рассматривается влияние достоверности показаний свидетеля и их согласованности с другими доказательствами на принятие судом решения. Кроме того, освещаются важные аспекты обеспечения равенства сторон, прозрачности судебного разбирательства и справедливого разрешения спора через участие свидетеля в судебном процессе.

**Ключевые слова:** свидетель, гражданский процесс, процессуальные права и обязанности, судебные доказательства, установление фактических обстоятельств дела, равенство сторон, прозрачность, справедливость, процессуальное участие.

**Ibragimova Raykhon Shodmonovna,**

PhD student of Tashkent State University of Law.

E-mail: rayxonibragimova135@gmail.com

## LEGAL STATUS AND ROLE OF THE WITNESS IN CIVIL PROCEEDINGS

### ANNOTATION

This article is devoted to the study of the legal status of a witness in civil proceedings, their role in the judicial process, and the significance of their testimony in establishing the factual circumstances of a case from both scientific and practical perspectives. The article analyzes the functions of a witness as a participant in the procedural process, their rights and obligations, as well as issues of liability in cases of providing false testimony or failing to comply with procedural rules. The impact of the reliability of witness testimony and its consistency with other evidence on the court's decision-making is examined. In addition, the article highlights the key aspects of ensuring equality of the parties, transparency of the proceedings, and the fair resolution of disputes through the participation of witnesses in the judicial process.

**Keywords:** witness, civil proceedings, procedural rights and obligations, judicial evidence, establishment of factual circumstances, equality of the parties, transparency, fairness, procedural participation.

Fuqarolik jamiyatida shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilish muhim konstitutsiyaviy kafolatlardan biri hisoblanadi. Fuqarolik sud ish yurituv jarayonida sud tomonidan adolatli, asoslangan va qonuniy qaror qabul qilinishi ko'p jihatdan ish bo'yicha to'plangan dalillarning to'g'ri baholanishiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan fuqarolik protsessida isbotlash instituti alohida ahamiyat kasb etadi. Isbotlash jarayonida turli xil dalil manbalari qo'llaniladi va ularning ichida guvoh ko'rsatmalari muhim o'rin egallaydi. Guvohlar tomonidan berilgan ma'lumotlar ko'pincha sud uchun ishning haqiqiy holatini aniqlashda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Fuqarolik protsessida guvoh sud muhokamasida taraflar qatoriga kirmaydigan, biroq ishning faktik holatlarini aniqlashga yordam beruvchi protsessual shaxs sifatida ishtirok etadi. U o'ziga ma'lum bo'lgan holatlar haqida sudga axborot berish orqali nizoni to'g'ri hal etilishiga ko'maklashadi. Shu bois, guvohning huquqiy maqomi, uning protsessual huquq va majburiyatlari, guvohlik berish tartibi hamda ko'rsatmalarining dalil sifatidagi roli fuqarolik protsessual huquqi nazariyasida muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega masala hisoblanadi. Guvohning sud jarayonidagi faol ishtiroki nafaqat ishning to'liq va xolisona o'rganilishini ta'minlaydi, balki adolatli sudlovning muhim kafolati sifatida ham namoyon bo'ladi. Zamonaviy fuqarolik protsessual huquqi rivojlanib borayotgan sharoitda guvoh institutini chuqur o'rganish, uning huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda guvohlarning protsessual kafolatlarini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki sud amaliyotida ko'plab fuqarolik ishlarining to'g'ri hal etilishi aynan guvohlarning ko'rsatmalariga tayanadi. Shu bilan birga, guvohlarning huquqiy maqomi bilan bog'liq ayrim nazariy va amaliy masalalar hali ham ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Mazkur maqolada fuqarolik protsessida guvohning huquqiy maqomi masalasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi, guvohning protsessual huquqlari va majburiyatlari, guvoh ko'rsatmalarining isbotlash jarayonidagi o'rni hamda ushbu institutni yanada takomillashtirishga oid ayrim ilmiy xulosalar yoritib beriladi.

Fuqarolik protsessida dalillarning muhim turlaridan biri guvoh ko'rsatmalari bo'lib, guvohning huquqiy maqomi mazkur institutning samarali ishlashini ta'minlovchi asosiy elementlardan biri hisoblanadi. Shu sababli fuqarolik protsessida guvohning huquqiy maqomini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. Fuqarolik protsessida guvoh

tushunchasi, avvalo, isbotlash jarayonining subyektivi sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 56-moddasiga muvofiq ishga doir biror holatdan xabardor bo'lgan har qanday shaxs guvoh bo'la oladi[1]. Bu ta'rif guvohning asosiy belgisi mavjudligini ko'rsatadi: bu, u ish uchun ahamiyatli faktlar haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerakligini bildiradi. Shu jihatdan guvoh protsess ishtirokchisi sifatida sud muhokamasining muhim elementi bo'lib xizmat qiladi. Ahamiyat berishimiz lozim bir jihat bu guvohning fuqarolik protsessida kim sifatida ishtirok etishidir. Ya'ni u taraf sifatida ishning holatlaridan manfaatdor shaxs kabi ishtirok etmaydi, aksincha sud protsessida adolatli va haqqoniy qaror qabul qilishida odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxs sifatida protsessda qatnashadi. Fuqarolik protsessual huquqi nazariyasida guvohning huquqiy maqomi masalasi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, rus olimi M.K. Treushnikov fuqarolik protsessida dalillar tizimini o'rganar ekan, guvoh ko'rsatmalarini shaxsiy dalillar turiga kiritadi va ularni faktlar to'g'risidagi subyektiv axborot manbai sifatida baholaydi. Uning fikricha, guvohning ko'rsatmasi ishning haqiqiy holatini aniqlashda muhim vosita bo'lsa-da, bunday dalillar inson xotirasi va idrokining xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgani sababli sud tomonidan ehtiyotkorlik bilan baholanishi zarur[2]. Shu bilan birga, V.M. Jukov guvoh institutini fuqarolik protsessida haqiqatni aniqlash mexanizmining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqib, guvohning protsessual maqomi uning huquq va majburiyatlari bilan belgilanadi[3], deb ta'kidlaydi. Milliy huquqshunos olimlar ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratgan. Masalan, o'zbek huquqshunosi X.T. Odilqoriyev fuqarolik protsessida dalillar tizimini tahlil qilarkan, guvoh ko'rsatmalarini sud tomonidan ishning faktik holatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi muhim protsessual vosita sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, guvohning huquqiy maqomi faqatgina ko'rsatma berish majburiyati bilan cheklanmaydi, balki u muayyan protsessual huquqlarga ham ega bo'lib, sud jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi[4].

Guvohning huquqiy maqomi, avvalo, uning protsessual huquqlari bilan belgilanadi. Fuqarolik protsessual qonunchiligiga ko'ra guvoh sudga ko'rsatma berishdan oldin o'zining huquq va majburiyatlari bilan tanishtirilishi lozim. Guvohning asosiy huquqlaridan biri o'ziga ma'lum bo'lgan holatlar haqida erkin va to'liq ko'rsatma berish huquqidir. Bundan tashqari, guvoh sudga kelishi bilan bog'liq xarajatlarning qoplanishini talab qilish, tarjimondan foydalanish, o'z ko'rsatmalarini yozma ravishda bayon etish hamda sud majlisida o'z xavfsizligini ta'minlashni so'rash kabi huquqlarga ega. Guvohning protsessual majburiyatlari ham uning huquqiy maqomini belgilovchi muhim element hisoblanadi. Eng avvalo, guvoh sud chaqirig'iga binoan sud majlisiga kelishi shart. Bundan tashqari, u sudga faqat haqiqatga mos ko'rsatmalar berishi, ish uchun ahamiyatli bo'lgan barcha ma'lumotlarni yashirmasligi lozim. Qonunchilikka muvofiq guvoh ataylab yolg'on ko'rsatma bergan taqdirda qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishi mumkin[5]. Bu norma guvoh ko'rsatmalarining ishonchliligini ta'minlashga qaratilgan muhim protsessual kafolat hisoblanadi. Guvoh institutining muhim jihatlaridan biri ayrim shaxslarning guvoh sifatida so'roq qilinmasligi bilan bog'liq. Fuqarolik protsessual qonunchilikka ko'ra, quyidagilar guvoh sifatida chaqirilishi va so'roq qilinishi mumkin emas: vakil, himoyachi, advokat yoki mediator vazifalarini bajarishi munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lib qolgan holatlar to'g'risida — fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy ish bo'yicha vakillar yoki jinoyat ishi bo'yicha himoyachilar, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha advokatlar, mediatorlar hamda jismoniy nuqsonlari yoki ruhiy holatining buzilganligi sababli faktlarni to'g'ri idrok qilishga yoki ular haqida to'g'ri ko'rsatuvlar berishga layoqatsiz shaxslar[6]. Bu qoidaning maqsadi fuqarolarning shaxsiy hayoti va professional sirini himoya qilishdan iborat. Shu jihatdan guvoh institutining tartibga solinishi inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq. Xorijiy davlatlar tajribasi ham guvoh institutining muhimligini tasdiqlaydi. Masalan, Germaniya fuqarolik protsessual qonunchiligida guvohning ko'rsatmasi sud isbotlash tizimining asosiy elementlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Nemis huquqshunosi Leo Rosenbergning ta'kidlashicha, guvoh ko'rsatmasi fuqarolik ishlarida faktlarni aniqlashning eng qadimiy va keng tarqalgan usullaridan biridir. Uning fikriga ko'ra, sud guvoh ko'rsatmalarini baholashda ularning izchilligi, mantiqiyliigi hamda boshqa dalillar bilan mos kelishiga alohida e'tibor qaratishi lozim[7]. Anglo-sakson huquq tizimiga mansub davlatlarda ham guvohlarning roli juda muhim hisoblanadi. Xususan, AQSh fuqarolik protsessida guvohlarni so'roq qilish jarayoni adversarial tamoyil asosida

amalga oshiriladi. Bu jarayonda taraflar guvohga savollar berish orqali uning ko'rsatmalarining ishonchliligini tekshiradi. Amerikalik huquqshunos Jon Wigmor guvoh ko'rsatmalarini baholashda psixologik omillar ham muhim rol o'ynashini ta'kidlab, sud guvohning xotirasi, kuzatuv qobiliyati va voqeani idrok etish sharoitlarini hisobga olishi kerakligini qayd etgan[8].

Fuqarolik protsessida guvohning huquqiy maqomi amaliyotda ham muhim ahamiyatga ega. Sud amaliyotida ko'plab fuqarolik ishlarida aynan guvoh ko'rsatmalari asosiy dalillardan biri sifatida xizmat qiladi. Masalan, mulkiy nizolar, meros masalalari yoki oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar ko'pincha guvohlarning ko'rsatmalariga tayanib hal etiladi. Bunday hollarda sud guvohlarning ko'rsatmalarini boshqa dalillar bilan solishtirgan holda baholaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, guvoh ko'rsatmalarining ishonchliligini ta'minlash muhim masalalardan biridir. Ba'zi hollarda guvohlar voqeani noto'g'ri eslab qolishi yoki subyektiv sabablar tufayli ma'lumotni buzib ko'rsatishi mumkin. Shu sababli sud guvoh ko'rsatmalarini baholashda ularning izchilligini, boshqa dalillar bilan mosligini hamda guvohning shaxsiy manfaatdorligini hisobga olishi zarur. Huquqshunos olim A.T. Bonnerning fikricha, guvoh ko'rsatmalarining baholanishi sudning ichki ishonchi asosida amalga oshiriladi, biroq bu jarayon mantiqiy va huquqiy mezonlarga asoslanishi kerak[9]. Sudya guvohning ko'rsatmalarini baholashda ularning tafsilotlari, vaqt va makon bilan bog'liqligi hamda boshqa dalillar bilan o'zaro mos kelishini tahlil qilishi lozim. Guvohning huquqiy maqomi bilan bog'liq yana bir muhim masala – guvohlarni himoya qilish institutidir. Zamonaviy huquq tizimlarida guvohlarning xavfsizligini ta'minlash muhim kafolat sifatida qaraladi. Chunki ayrim hollarda guvohlar bosim yoki tahdidga duch kelishi mumkin. Shu sababli ko'plab davlatlarda guvohlarni himoya qilish mexanizmlari ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasida ham sud islohotlari doirasida guvohlarning huquqiy maqomini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Fuqarolik protsessual qonunchilikda guvohlarning huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo'yilgan bo'lib, bu sud jarayonining oshkoraligi va adolatli o'tishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Alohida qayd etadigan bo'lsak, fuqarolik protsessida guvohning huquqiy maqomi sud tomonidan ishning haqiqiy holatini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Guvoh ko'rsatmalari fuqarolik ishlarida dalillarning muhim turlaridan biri bo'lib, ularning ishonchliligi va to'g'riligini ta'minlash sudning adolatli qaror qabul qilishiga xizmat qiladi. Shu sababli guvoh institutini yanada takomillashtirish, guvohlarning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish hamda ularning protsessual maqomini mustahkamlash fuqarolik protsessual huquqini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Fuqarolik protsessida guvohning huquqiy maqomini yanada chuqurroq tahlil qilish jarayonida uning nafaqat dalillar manbai, balki sud muhokamasining muhim protsessual ishtirokchisi sifatidagi o'rni ham alohida e'tiborga loyiq ekanligini ko'rish mumkin. Sud tomonidan ishning haqiqiy holatini aniqlash jarayonida guvohning ko'rsatmalari ko'pincha faktik vaziyatni tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli guvohlarning sud jarayonida ishtirok etish tartibi, ularning protsessual huquqlari va majburiyatlari, shuningdek ularning ko'rsatmalarining ishonchliligini baholash masalalari fuqarolik protsessual huquqining muhim institutlaridan biri sifatida qaraladi. Fuqarolik protsessual munosabatlarida guvohning huquqiy maqomi uning protsessual subyekt sifatidagi xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Guvoh sud muhokamasida taraflar qatoriga kirmasa-da, u sudga ishning muhim faktik jihatlarini aniqlashda yordam beruvchi shaxs hisoblanadi. Boshqacha aytganda, guvohning protsessual faoliyati sudning adolatli qaror chiqarishiga xizmat qiladi. Fuqarolik protsessual huquqi nazariyasida guvohlar ko'pincha “odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar” kategoriyasiga kiritiladi. Bu esa guvohlarning sud faoliyatidagi o'rni alohida ekanligini ko'rsatadi. Ingliz tadqiqotchilaridan biri Cappelletti ta'kidlaydiki, guvohning protsessual maqomi va huquqlari sud jarayonining adolatli va oshkora bo'lishida muhim rol o'ynaydi, chunki ular nafaqat faktlarni yetkazuvchi shaxs, balki sud qarorlarining qonuniyligini ta'minlovchi protsessual subyekt sifatida ishtirok etadi[10].

Guvohning huquqiy maqomini tavsiflashda uning shaxsiy xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Sud guvoh ko'rsatmalarini baholashda guvohning yoshi, bilim darajasi, voqeani qabul qilish va eslab qolish qobiliyati kabi omillarni ham hisobga olishi mumkin. Chunki har bir

shaxs voqealarni o'ziga xos tarzda idrok etadi va ularni eslab qoladi. Shu sababli guvoh tomonidan berilgan ma'lumotlar ba'zan subyektiv xarakterga ega bo'lishi mumkin. Bu esa suddan guvoh ko'rsatmalarini tanqidiy tahlil qilishni talab etadi. Sud amaliyotida guvoh ko'rsatmalarini baholash jarayoni odatda boshqa dalillar bilan o'zaro solishtirish orqali amalga oshiriladi. Masalan, yozma dalillar, moddiy dalillar yoki ekspert xulosalari mavjud bo'lgan holatlarda guvoh ko'rsatmalari ushbu dalillar bilan uyg'un holda tahlil qilinadi. Agar guvoh ko'rsatmalari boshqa dalillar bilan mos kelsa, ularning ishonchliligi ortadi. Aksincha, agar guvohning ko'rsatmalari boshqa dalillar bilan zid bo'lsa, sud bunday ko'rsatmalarning haqiqiyligini qo'shimcha tekshirishi lozim bo'ladi. Guvoh institutining muhim jihatlardan biri – guvohni so'roq qilish tartibidir. Fuqarolik protsessida guvohni so'roq qilish sud majlisida amalga oshiriladi va u qat'iy protsessual qoidalarga bo'ysunadi. Odatda guvoh sud tomonidan ogohlantirilgandan so'ng o'z ko'rsatmalarini bayon qiladi. Keyinchalik sudya hamda taraflar guvohga aniqlashtiruvchi savollar berishi mumkin. Bu jarayon guvoh tomonidan berilgan ma'lumotlarning to'liqligi va aniqligini ta'minlashga xizmat qiladi. Guvohni so'roq qilish jarayonida protsessual qoidalarga ham alohida e'tibor qaratiladi. Guvohga nisbatan bosim o'tkazish, uni chalg'ituvchi savollar berish yoki uni haqorat qilishga yo'l qo'yilmaydi. Sud majlisi ishtirokchilari guvohga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishi shart. Bu qoida fuqarolik protsessining insonparvarlik va adolat tamoyillariga asoslanganligini ko'rsatadi.

Guvohlarning sud jarayonidagi ishtirokini ta'minlash masalasi ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Ba'zi hollarda guvohlar turli sabablarga ko'ra sud majlisiga kelmasligi mumkin. Bunday vaziyatlarda sud guvohni majburiy keltirish choralarini qo'llashi mumkin. Mazkur choralar sudning ishni to'liq va har tomonlama ko'rib chiqish majburiyatidan kelib chiqadi. Shu bilan birga, guvohning uzrli sabablar bilan sudga kelolmasligi holatlari ham e'tiborga olinadi. Zamonaviy fuqarolik protsessida guvohlarning ishtirokini ta'minlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish ham tobora kengayib bormoqda. Ayrim hollarda guvohlar sud majlisida masofadan turib, videokonferensiya aloqa tizimi orqali ko'rsatma berishi mumkin. Bu amaliyot sud jarayonining samaradorligini oshirishga hamda protsessual vaqtni tejashga xizmat qiladi. Shuningdek, bunday usul guvohning boshqa hududda yoki mamlakatda bo'lgan taqdirda ham sud muhokamasida ishtirok etishiga imkon yaratadi.

Fuqarolik protsessida guvohlarning sud jarayonida ishtiroki ishning to'liq va adolatli ko'rib chiqilishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, ba'zan guvohlar tashqi bosim yoki tahdid ostida qolishi mumkin. Shu sababli guvohlarni himoya qilish masalasi protsessual kafolatlarning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Sud va taraflar guvohning xavfsizligini ta'minlash uchun bir qator choralarini qo'llashi mumkin, jumladan, guvohni maxfiy so'roq qilish, sud majlisida shaxsiy ma'lumotlarini yashirish, yoki masofadan turib videokonferensiya orqali ko'rsatma berish imkoniyatlarini yaratish. Huquqshunoslar ta'kidlaganidek, guvohlarni bosimdan himoya qilish nafaqat ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlaydi, balki ko'rsatmalarining ishonchliligi va sud qarorining adolatliligini mustahkamlaydi[11]. Xalqaro va milliy sud amaliyotida guvoh himoyasini ta'minlashga qaratilgan mexanizmlar sudning ishga nisbatan xolisona yondashuvi, taraflarning tengligi va oshkoralik tamoyillarining samarali amalga oshirishiga xizmat qiladi. Shu bois, guvohni bosimlardan himoya qilish instituti fuqarolik protsessual huquqning dolzarb va amaliy jihatdan ahamiyatli qismi sifatida qaraladi.

Fuqarolik protsessida guvohning huquqiy maqomini takomillashtirish masalasi bugungi kunda huquqshunos olimlar tomonidan faol muhokama qilinmoqda. Ayrim mutaxassislar guvohlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish, ularning xavfsizligini ta'minlash hamda sud jarayonida beriladigan ko'rsatmalarning ishonchliligini oshirishga qaratilgan qo'shimcha protsessual kafolatlarni joriy etish zarurligini ta'kidlaydilar[12]. Bu takliflar fuqarolik protsessining samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim ilmiy g'oyalar sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, guvohlarning protsessual madaniyatini oshirish ham muhim vazifa hisoblanadi. Ba'zi hollarda fuqarolar sudga guvoh sifatida chaqirilganida o'z huquq va majburiyatlarini to'liq bilmasligi mumkin. Natijada ular sud jarayonida o'z ko'rsatmalarini aniq va izchil bayon qilishda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, sud jarayonining mohiyatini tushuntirish ham guvoh institutining samarali ishlashiga yordam beradi.

Yakuniy xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, umuman olganda, fuqarolik protsessida guvohning huquqiy maqomi sud faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Guvoh ko'rsatmalari sud tomonidan ishning faktik holatlarini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu sababdan guvoh institutining samarali faoliyat yuritishi sud qarorlarining qonuniyligi va asoslanganligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Fuqarolik protsessual qonunchiligini takomillashtirish jarayonida guvohlarning protsessual huquqlari va kafolatlarini yanada mustahkamlash masalasi alohida e'tiborda bo'lishi lozim. Bu esa o'z navbatida fuqarolarning sud orqali o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda odil sudlovni amalga oshirish samaradorligini oshiradi.

### **Iqtiboslar/Сноски/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018. (Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan. National database of legislative documents, 23.01.2018)
2. Треушников, М.К. Гражданский процесс. Москва: Городец, 2014. (Treushnikov, M.K. Civil process. Moscow: Gorodets, 2014)
3. Жуков В.М. Судебная защита прав граждан в гражданском процессе. – Москва: Статут, 2017. (Jukov, V.M. Judicial Protection of Citizens' Rights in Civil Proceedings. Moscow: Statut, 2017.)
4. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2018. (Odilqoriyev Kh.T. Theory of State and Law. – Tashkent: Adolat, 2018.)
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y. (Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. National database of legislative documents, Bulletin of the Supreme Council of the Republic of Uzbekistan, 1995)
6. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018. (Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan. National database of legislative documents, 23.01.2018)
7. Rosenberg L. Civil Procedure. – Munich: C.H. Beck Publishing, 2015.
8. Wigmore J.H. Evidence in Trials at Common Law. – Boston: Little, Brown and Company, 2013.
9. Боннер А.Т. Доказывание в гражданском процессе. – Москва: Норма, 2016. (Bonner A.T. Proof in Civil Procedure. – Moscow: Norma, 2016.)
10. Cappelletti M. The Judicial Process in Comparative Perspective. – Oxford: Oxford University Press, 2014.
11. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. - Toshkent: TDYUI, 2007. (Shoraxmetov Sh.Sh. Civil procedural law of the Republic of Uzbekistan. Textbook. -Tashkent: TDYUI, 2007.)
12. Гражданский процесс зарубежных стран. Курс лекций: Учебное пособие. – Мн.: БГУ, 2004. (Civil Procedure in Foreign Countries. Lecture Course: Textbook. – Mn: BSU, 2004.)

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

### JOURNAL OF LAW RESEARCH

#### Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo'lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
2. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahafaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
3. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
4. Keyingi qatordan 6-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
5. Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so'zi minimal 2000 ta bo'ladi.
6. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].
7. Maqolada keltirilgan dalillarning to'g'riligi uchun muallif mas'ul, plagiat holati taqiqlanadi.
8. Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.

#### Требования к оформлению научной статьи:

1. Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.
2. В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.
3. Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.
4. Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.
5. Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.
6. Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, C.25].
7. Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.
8. Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.

#### Requirements of the articles submitted:

1. Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.
2. In the first line on the right: the author's surname, given name and patronymic; in the second line: the author's affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.
3. Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.
4. Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.
5. Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.
6. The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].
7. The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.
8. It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.